



JADID ISLOHOTI MARIFAT ORQALI MILLATNI UYG'OTGAN HARAKAT

Xolmirzayeva Sarvina

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18538416>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 07- fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 09- fevral 2026 yil

KEY WORDS

jadidchilik, marifatparvarlik, matbuot, milliy g'oya, milliy usul maktab, usuli jadid, "Jamiyati xayriya", milliy istiqloq, milliy uyg'onish.

ABSTRACT

Maqolada jadidchilik harakati va asosiy g'oyalari ma'rifatparvarlik faoliyati yoritib berilgan. Jadidlarning marifat, ta'lim va madaniyat sohalaridagi islohotlari jamiyat tafakkurini yangilashga qaratilgan faoliyati yoritiladi. Jadidlar harakatining asosiy maqsadi-ma'rifat, yangi usuldagi ta'lim, ijtimoiy fikrni uyg'otish va jamiyatni yangilash orqali millat taraqqiyotiga yo'l ochish bo'lgan. Jadidlar tomonidan olib borilgan islohotlar, ularning ta'lim, madaniyat va jamiyat ongini o'zgartirishga qaratilgan faoliyati, shuningdek bu harakatning zamonaviy yoshlar tarbiyasi uchun ahamiyati yoritiladi. Jadidchilikning tarixiy ahamiyatini ochib berish bilan birga bugungi kunda manaviy ma'rifiy jarayonlari uchun ham muhim ma'lumotlar beriladi.

Prezidentimiz Islom Karimov fikriga ko'ra, jadidchilik harakati – bu xalqni ma'rifat, milliy ong va modern ta'lim orqali uyg'otishga qaratilgan muhim harakat bo'lgan. U jadidlar faoliyatini qadrlab, ularning g'oyalari milliy uyg'onish va taraqqiyot yo'lida xizmat qilganini qayd etgan. Jadidlar ilm-ma'rifat va ta'limni rivojlantirish orqali jamiyatni yangilashga intilgan, o'zbek xalqining ma'naviy merosi va tarixiy ildizlarini tiklashda ulkan hissa qo'shgan. Ular yaratgan yangi usuldagi maktablar, matbuot va madaniy faoliyatlar milliy taraqqiyot uchun mustahkam poydevor bo'lgan. Bu fikrlar Islom Karimov vaqtida davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, jadidlar merosi qayta o'rganildi va qadrlana boshlandi.

Jadidlar XIX–XX asr boshida musulmon jamiyatini ma'rifat, zamonaviy ta'lim va milliy uyg'onishga olib chiqishga intilgan taraqqiyparvar ziyolilar harakati hisoblanadi. Ma'lumki, "jadid" so'zi "yangi", "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Turkistonda jadidchilik harakatining faol tashkilotchi - ishtirokchilari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bular: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abudulqodir Muxiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi),

Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm)lar nomini birinchilar safida keltirishimiz mumkin.

XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo'layotgan ulkan madaniy -ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo'lsada, Turkiston o'lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, "gazeta o'qig'uvchilarni" mullalar "jadidchi" nomi bilan atar edilar. Jadidchilik Harakatining maqsad va vazifalari jadidlar Turkiston jamiyatini ilm-ma'rifat va yangiliklar orqali o'zgartirish, zamonaviy dunyoqarash va ma'rifatni shakllantirishni, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganlar. Ularning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat edi:

1. Zamonaviy ta'lim tizimini yaratish: Jadidlar eski usuldagi diniy ta'lim tizimini isloh qilish va zamonaviy fanlarni o'rgatadigan yangi usuldagi maktablarni tashkil etishni maqsad qilganlar. Ushbu maktablarda tabiiy fanlar, matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy bilimlar o'qitila boshlagan.

2. Milliy o'zlikni anglash va uyg'onish: Jadidlar xalqni o'z tarixini bilish, o'z madaniy merosini asrash va rivojlantirishga chaqirdilar. Ular Turkiston xalqlarining o'zligini anglashiga, o'z milliy madaniyati, tili va qadriyatlarini qadrlashiga katta ahamiyat qaratganlar.

3. Matbuotni rivojlantirish va omma orasida savodxonlikni oshirish: Jadidlar gazetalar, jurnallar va kitoblar orqali ommani ma'rifat bilan tanishtirishni maqsad qilib, gazeta va jurnalchiqarishni yo'lga qo'yganlar. Bu nashrlar orqali o'zlarining ilg'or g'oyalarini, milliy uyg'onishva rivojlanish zarurligini xalq orasiga tarqatganlar.

4. Jamiyatni modernizatsiya qilish: Jadidlar xalq hayotini zamonaviy dunyo talablarigamoslashtirish va ijtimoiy hayotni modernizatsiya qilishga intilganlar. Ular jamiyatda yangichafikrlash va dunyoqarashni shakllantirish, texnologiyalarni joriy etish, mehnatni samarali tashkil qilish tarafdori bo'lganlar. Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og'ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchun o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidan uyg'onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy - siyosiy harakat edi.

O'lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllana boshladi. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyotparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Harakat faoliyati osonlik bilan kechmadi. Professor Begali qosimov fikri bilan aytganda, "Turkiston, Buxoro va Xorazm munavvarlarining yangilikka intilishi, Rossiyada, xususan Kavkaz, Volgabayida yashovchi turkiy xalqlar bilan yaqinlashishga, hamkorlikka intilish kuchaydi".

Jadidlar Usmonli Turkiyadagi "Ganch (yosh) turk"lar tashkilotlari ta'sirida "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Yosh turkistonliklar" degan nomlarda faoliyat olib borishgan.

Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo'lmagan ki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchrama-gan bo'lsin. Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham xalqning peshqadam ziyolilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g'oyalarni "ishlab chiqishadi". Jadidchilik o'z tarixida ikki bosqichni o'tgan. Birinchisi — ma'rifatparvarlik bosqichi va ikkinchisi — siyosiy bosqich. Jadidlar mustaqillik va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vaqti yetib kelganini anglab yetib mustamlakachilikni qattiq va ayovsiz tanqid qila boshladilar, oldingi konstitutsiyaviy monarxik tuzum g'oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat berilishini talab qila boshladilar. Jadidchilik harakatining faoliyati maktabdan, maorifdan boshlangan, so'ng matbuot, san'at va siyosatga o'tgan.

Rossiya va uning mustamlakalarida jadidchilik harakatiga Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914) asos soldi. U Boqchasaroyda dastlabki "usuli jadid" (yangi usul) maktabini 1884 yilda ochadi. Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan Ismoil Gaspirinskiy Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga o'lka musulmon maktablarini ham isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Rad javobini olgach, 1893 yil Turkistonga o'zi keladi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi. Shunday qilib, jadidlar tomonidan yangi maktablarga ochish, maktablar uchun darsliklar yaratish jarayoni boshlandi. "Usuli jadid" maktablarida diniy fanlar va arab tili bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, tabobat, nujum, handasa fanlari, rus, fors tillari - jami 17 tagacha fan o'rganilishi shartlari ilgari surildi. 1909 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Ismoilbek Gasprinskiyning eng katta xizmati Rossiya sarhadlarida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoqlashib, begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi, yaqinlashtirdi. Butun boshli ilg'or ma'rifatparvar, ziyolilar qatlamini yetishtirdi. Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifda chinakam inqilob yasadi.

Jadidlar matbuot va nashriyot vositasidan keng foydalandilar. Ular Turkistonda gazeta va jurnallar, xususan ilmiy, madaniy va ijtimoiy mavzularda nashr etish orqali g'oyalarini ommaga yetkazdilar. Bu matbuot orqali yangi fikrlar, fikrlash erkinligi, milliy ong va vatanparvarlik g'oyalari targ'ib qilindi. Jadidchilik harakati shuningdek milliy o'zlikni anglash, til va adabiyotga e'tibor qaratish, zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish orqali jamiyatda yangi qarashlarni shakllantirdi va bu o'z navbatida butun bir avlodning dunyoqarashi, milliy ma'naviyati va tafakkuri rivojiga katta turtki bo'ldi. Ularning asosiy xizmatlari quyidagilar:

1. yangi metoddagi maktablar ochish va ta'limni isloh qilish;
2. matbuot va adabiyot orqali ma'rifat tarqatish;
3. uyg'onish, madaniyat va tarixni targ'ib qilish;
4. ijtimoiy va siyosiy sohada yangi qarashlar ilgari surish bilan mustamlakachilikka qarshi yengil vositalar bilan kurashish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy

iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini o'tguncha ko'p anglab yetadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zaynobiddin Abdurashidov. "Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda jadidchilik" "Toshkent" - 2008
2. Rustam Sharipov "Turkistonda jadidchilik harakati tarixidan" "Toshkent"-2002
3. Xurshida Yusupova "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. "Toshkent" 2016. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Ulug'bek Dolimov "Turkistonda jadid maktabilari" "Toshkent"-2006
5. Avloniy. A "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar.2-jild.T., "Ma'naviyat", 1998 yil

INNOVATIVE
ACADEMY